



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 09 | pp. 170-177 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TASHQI SAVDO OPERATSIYALARIDA DEBITOR QARZDORLIK MASALALARI



Tashmuxamedov Dilmirod Mirabzalovich
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Soliq qo'mitasining "Tashqi savdo
operatsiyalarini monitoringi boshqarmasi" ning
davlat soliq bosh inspektori

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Tashqi savdo operatsiyalarida debtor qarzdorlik masalalari ko'rib chiqilgan bo'lib, unda debtor qarzdorlikni aniqlash, debtor qarzlarning tasnifi, bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq debtor qarzdorlik hamda Tashqi savdo operatsiyalari ustidan amalga oshiriladigan nazorat qilish tartibi hamda Tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha muddati o'tgan debtor qarzdorlik uchun jarima qo'llash tartibi kabi masalalar batafsil yoritilib, xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Tashqi savdo operatsiyalari, debtor qarzdorlik, debtor qarzlar, muddati o'tgan debtorlik qarzlari , uzoq muddatli debtorlik qarzlari, 180 kun rejimi, qarzdorlik uchun jarima.

Аннотация. В данной статье, рассмотрены вопросы дебиторской задолженности во внешнеторговых операциях, в которых определение дебиторской задолженности, классификация дебиторской задолженности, порядок контроля дебиторской задолженности и внешнеторговых операций в соответствии с действующим законодательством на сегодняшний день в Республике Узбекистан, а также вопросы внешнеторговых операций. Подробно освещен порядок применения штрафов за просроченную дебиторскую задолженность, даны выводы и предложения.

Ключевые слова: Внешнеторговые операции, дебиторская задолженность, просроченная дебиторская задолженность, долгосрочная дебиторская задолженность, 180-дневный режим, пеня за задолженность.

Abstract. In this state, the issues of accounts receivable in foreign trade operations are considered, in which the definition of accounts receivable, classification of accounts receivable, the procedure for monitoring accounts receivable and foreign trade operations in accordance with the current legislation today in the Republic of Uzbekistan, as well as issues of foreign trade operations. The procedure for applying fines for overdue accounts receivable is covered in detail, conclusions and proposals are given.

Keywords: Foreign trade operations, receivables, accounts receivable, overdue receivables, long-term receivables, 180-day regime, penalty for indebtedness.

Kirish

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoev 2023-yil 9-noyabr kuni Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining (IHT) 16-sammitida nutqida "To'siqsiz savdoni shakllantirish yo'lida hali-hamon ko'plab cheklov va muammolar saqlanib qolmoqda. Bu holatlarni ochiq tan olishimiz va ularni ijobjiy tomonga o'zgartirish uchun vaziyatga yangicha qarash bilan yondashish kerak", - deb ta'kidlashlari,^[1] korxonalarning rivojlanishi hamda faoliyat yuritishida qarzdorlik, tashqi savdo operatsiyalarida debtor qarzdorlik masalalariga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatada.

Har qanday tashkilot yoki korxona ishlab chiqarish va sotish faoliyati jarayonida tashqi va ichki kontragentlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Bular: yetkazib beruvchilar va iste'molchilar, buyurtmachilar va pudratchilar, soliq organlari, ta'sischilar (sheriklar), banklar va boshqa tashkilotlar, korxona xodimlari va boshqa debtorlar va kreditorlardir.

Korxona olib boradigan faoliyat turiga yoki faoliyatiga qarab bugungi kun amaliyotida qarzlar debtorlik yoki kreditorlik qarzlariga bo'linadi.

Debtorlik qarzlar bozor munosabatlarining normal natijasi hisoblanib, har bir korxona xo'jalik faoliyatining tarkibiy qismidir. Debtorlik qarzlar tashkilotlar o'rtasidagi mavjud naqd pul to'lovlari tizimining ajralmas qismi bo'lib, unda to'lov shartnoma hujjalarda nazarda tutilgan haqiqiy to'lov vaqt va amaldagi to'lov vaqt o'rtasidagi tafovutlarda seziladi. Mahsulotlarni jo'natishda korxona, qoida tariqasida, darhol to'lov uchun pul olmaydi, shuning uchun u mijozlarga kredit beradi. Shu sababli, korxonaning mablag'lari mahsulot jo'natilgan paytdan boshlab to'lov qabul qilingunga qadar debtorlik qarzlar ko'rinishida "muzlatiladi".

Agar korxona debtorlik qarzlarini tartibga solishga muvaffaq bo'lsa, bu iqtisodiy barqarorlikning pasayishiga olib kelmaydi. Korxona aktivlarining umumiyligi tarkibida debtorlik qarzlarining yuqori darajasi bilan moliyaviy yo'qotishlar xavfi ortadi va korxonaning moliyaviy barqarorligi pasayadi. O'z vaqtida qaytarilmagan debtorlik qarzlar korxonaning aylanmasidan mablag'larning chetlanishiga olib keladi va buning natijasida naqd pul taqchilligi va majburiyatlarni to'lamaslik xavfi ortishi kabi muammolar paydo bo'lishiga olib keladi.^[2] Shuning uchun har bir korxonaning eng muhim vazifasi debtorlik qarzlarini to'g'ri boshqarishidir. Bu ehtiyoj, birinchi navbatda, debtorlik qarzlar nafaqat korxonaning joriy aktivlari hajmiga, balki butun iqtisodiy holatiga ham ta'sir qilishi bilan bog'liq.

Odatda debtorlik qarzlar korxonaning iqtisodiy foydasida, uni to'lash natijasida ertami-kechmi pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlarini olishni kutilishida ifodalananadi. Shunga ko'ra, debtorlik qarzi faqat qarzdor tomonidan to'lanishi ehtimoli mavjud bo'lgandagina aktiv sifatida tan olinishi mumkin.

Debtorlik qarzlarining hajmi va holati yuzasidan ko'pincha moliyaviy menejer ishlashi kerak bo'lgan eng muhim va dolzarb masalalardan hisoblanadi. Moliyaviy resurslarning hamda likvid aktivlarning yetishmasligi tashkilotning majburiyatlarini bajarishning kechikishiga olib keladi yoki tashkilot rahbariyatini banklardan qimmatroq qarzga olingan moliyaviy resurslarga murojaat qilishga majbur qiladi. Qisqa muddatli qarzga olingan moliyaviy resurslardan foydalanish ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlar tannarxining oshishiga va natijada operatsion faoliyatning

moliyaviy natijasining pasayishiga olib keladi. Debitorlik qarzlarini samarali boshqarish nafaqat qarzni boshqarish sifatini yaxshilashni, balki tashkilotning bozorda rivojlanish va faoliyat istiqbollarini rejalashtirishni ham o'z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharxi

Shunday ekan, "debitorlik qarzlari o'zi nima?", "ular qaysi me'zonlarga ko'ra tavsiflanadi?" va "korxonalar debitor qarzlarini qanday aniqlashlari mumkin?" degan savollar tug'ilishi tabiiydir.

O'quv, uslubiy va ilmiy adabiyotlarda "debitorlik qarzlari" tushunchasining ko'plab tasniflari va turli xil ta'riflari mavjud. Ko'pgina hollarda u aylanma mablag'larning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida belgilanadi, u ham yuridik, ham jismoniy shaxslar uchun mahsulot va xizmatlar uchun haq to'lash bo'yicha talablarni ifodalaydi.

Buxgalteriya hisobi standartlarida debitorlik qarzdorlik - bu ma'lum bir vaqtida qarzdorlarning korxonaga bo'lgan qarzlari miqdoridir.^[3] Ko'pincha, bu qarz miqdori buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga ko'ra balans sanasida aniqlanadi.

Aksariyat ekspertlar debitorlik qarzlarini uning iqtisodiy, buxgalteriya yoki huquqiy muhitda yuzaga kelishi oqibatlariga qarab belgilaydilar. Ushbu tamoyilga muvofiq tuzilgan debitorlik qarzlarining ta'riflari, shuningdek, debitorlik qarzlarining moliyaviy talqini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Debitor qarzdorlikni aniqlash

Qo'llanilishiga ko'ra	Ta'rifi
Iqtisodiy	Korxonaning yuridik va jismoniy shaxslardan ular bilan xo'jalik munosabatlari natijasida to'lanadigan qarzlari miqdori.
Buxgalteriya	Buxgalteriya balansidagi aktivlar moddasi
Yuridik	Uchinchi shaxslarning bajarilmagan pul majburiyatları bo'yicha kreditor sifatida tashkilotga tegishli bo'lgan mulkiy huquqlar (da'volar).
Moliyaviy	Yetkazib beruvchilar va xaridorlar o'rtasidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish usullari va muddatlari bo'yicha aniq moliyaviy munosabatlar to'plamini aks ettiruvchi moliyaviy toifasi, etkazib beruvchining joriy aktivi shaklini oluvchm - potensial ijobjiy pul oqimi.

Debitorlik qarzlari - turli asoslardan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarda uning qarzdorlari bo'lgan boshqa shaxslarga nisbatan tashkilotning mulkiga kiritilgan mulkiy da'vo. Debitorlik qarzlari buxgalteriya hisobiga qabul qilinganda, debitorlik va majburiyatlar bitimda ishtirok etuvchi tomonlarning kelishuvi bilan shartnomada belgilangan miqdorda baholanadi.


Tadqiqot metodologiyasi

Bizning fikrimizcha, debitor qarzdorlik – yuridik yoki jismoniy shaxslar boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslar bilan o'zaro xo'jalik munosabatlari natijasida ulardan olishi lozim bo'lgan qarz summasidir.

Debitorlik qarzlarining paydo bo'lish vaqt tuzilgan shartnomalar shartlari bilan belgilanadi. Korxona tovarlar, ishlar va xizmatlarga bo'lgan egalik huquqini kontragentga o'tkazgandan so'ng, mijozlar to'lash majburiyatini oladi, buning natijasida debitorlik qarzlar paydo bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, debitorlik qarzlar ko'pincha aks ettiriladi:

- tovarlarni jo'natish uchun hujjatlar to'ldirilgandan keyin;
- ishlarni (xizmatlarni) bajarish dalolatnomasi imzolangandan keyin.^[4]

Debitorlik qarzlar qaysi nuqtai nazardan qaralishiga qarab, turli tasniflar mavjud (1-rasm).



1-rasm. Debitorlik qarzlarining tasnifi.^[2]

To'lovning o'z vaqtida amalga oshirilishiga ko'ra, debitorlik qarzlar oddiy va muddati o'tganlarga bo'linadi. Oddiy debitorlik qarzi to'lash muddati hali kelmagan, lekin mulk huquqi xaridorga o'tgan tovarlar yoki xizmatlar uchun qarz hisoblanadi. Muddati o'tgan qarz - shartnomada belgilangan muddatda to'lanmagan mahsulotlar uchun pul majburiyati.

Muddati o'tgan debitorlik qarzlar, o'z navbatida, shubhali va umidsizlarga bo'linadi.^[5] Shubhali qarz deganda, soliq to'lovchiga tovarlarni sotish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan har qanday qarz tushuniladi, agar bu qarz shartnomada belgilangan muddatda to'lanmagan bo'lsa, u holda bu soliq to'lovchiga nisbatan shubhali qarzdir.

Agar tashkilot ma'lum sabablarga ko'ra o'z qarzdorlaridan qarzni undira olmasa, bu miqdor umidsiz debitorlik deb ataladi.^[5] Misol uchun, agar da'vo muddati uzoq vaqt davomida (3 yil) tugagan bo'lsa yoki qarzdor tugatilgan bo'lsa, unda qarz undirib bo'lmaydigan hisoblanadi. Agar qarz hali ham qarzdor tomonidan to'langan bo'lsa, u

kreditor tashkilot tomonidan operatsion bo'lmagan daromadlarning bir qismi sifatida hisobga olinadi.^[4]

Davomiyligi bo'yicha debtorlik qarzlari qisqa muddatli va uzoq muddatliga bo'linadi.^[5] Qisqa muddatli qarz - xaridorning tashkilot oldidagi qarzi bo'lib, uni to'lash shartnoma tuzilgan kundan boshlab 12 oy ichida kutilmoqda. To'lanishi bir yildan ortiq muddatga kutilayotgan qarz uzoq muddatli deb ataladi.^[6]

Uzoq muddatli debtorlik qarzlari ulushining oshishi korxona aktivlari likvidligining pasayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Debtorlik qarzlarining o'sish sur'ati daromadlarning o'sish sur'atlaridan oshib ketganda, tashkilotning joriy faoliyatini moliyalashtirish uchun foydalaniladigan daromadlar "muzlatiladi".^[7]

Debtorlik qarzlarining yana bir tasnifi mavjud: majburiyatlarning mazmuniga ko'ra, kechiktirish mahsulot, tovarlar, ishlar, xizmatlarni sotish bilan bog'liq bo'lishi mumkin yoki yo'q.^[5] Shuni ta'kidlash kerakki, debtorlik qarzlari tovarlar emas. Uning qiymati asosiy xususiyatlar va debtorlik qarzlarining miqdori, da'vo huquqlari va majburiyatlarini tavsilovchi hujjatlar asosida shakllantiriladi.

Tahlillar va natijalar

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq debtor qarzdorlik hamda Tashqi savdo operatsiyalari ustidan amalga oshiriladigan nazorat qilish tartibida 180 kun rejimi amal qiladi. Unga ko'ra,

Tovarlarni respublikaga olib kirish va "erkin muomalaga chiqarish (import)" bojaxona rejimiga rasmiylashtirish, shuningdek, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish yoxud ular uchun to'langan pul mablag'larini qaytarish muddati import kontraktlari bo'yicha to'lov amalga oshirilgan kundan

Tovarlarni respublikaga olib kirish va bojaxona ombori, erkin ombor, erkin bojaxona zonasasi, bojaxona hududida qayta ishslash bojaxona rejimlariga rasmiylashtirish, shuningdek, ular uchun to'langan pul mablag'larini qaytarish muddati bo'yicha to'lov amalga oshirilgan kundan

Eksport kontrakti bo'yicha tushum tushishi yoki tovarlarni qayta olib kirish muddati tovarlarga nisbatan — «eksport» bojaxona rejimi bo'yicha bojaxona yuk deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan sanadan va xizmatlarga (ishlarga) nisbatan — bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomasi imzolangan sanadan

Olib chiqish kontrakti bo'yicha tushum tushishi yoki tovarlarni qayta olib kirish muddati tovarlar reeksport (jumladan, eksport) bojaxona rejimiga rasmiylashtirilgan sanadan

Sotib olish kontrakti bo'yicha to'langan pul mablag'larini qaytarish yoki sotish kontrakti bo'yicha pul mablag'larining kelib tushishi sotib olish kontrakti bo'yicha to'lov amalga oshirilgan kundan

boshlab 180 kundan oshmasligi kerak. Bunda sotish kontrakti bo'yicha kelib tushgan pul mablag'larining miqdori sotib olish kontrakti bo'yicha to'langan pul mablag'lari miqdoridan kam bo'lmasligi lozim.^[8]


Ushbu muddatda qaytarilmagan yoki belgilangan miqdorda kelib tushmagan valyuta mablag'lari muddati o'tgan debitor qarzdorlik sifatida qaraladi.

Eksport kontraktlari bo'yicha to'lovlar vakil banklar orqali amalga oshirilgan va vakil bankning bank vositachilik haqi eksport qiluvchining hisob raqamiga tushuvchi mablag'lar hisobiga to'lanadigan hollarda, hamda avans to'lovlar bo'yicha mablag'lar qaytarib berilganda yoki vakil bankning bank vositachilik haqi import qiluvchining mablag'lar hisobiga to'langanda import kontraktlari bo'yicha tovarlar to'liq yetkazib berilmagan hollarda debitorlik qarz sifatida hisobga olinmaydi.

Eksport shartnomalari bo'yicha to'lovlar uchinchi shaxslar, ya'ni eksport shartnomasi bo'yicha invoys (hisob-faktura) asosida yetkazib beruvchining pullik huquqlarini berish asosida debitorlik qarzlarini sotib olgan yoki yetkazib beruvchiga eksportoldi moliyalashtirishni amalga oshirgan moliya agentlari (investorlar) tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, uchinchi shaxs-investorlar tomonidan ko'rsatilgan moliyaviy xizmat uchun ushlab qolinadigan mukofotlash haqi miqdori tegishli eksport kontraktlari bo'yicha debitorlik qarzi hisoblanmaydi. Bunday hollarda tegishli eksport kontraktlaridan tushadigan valyuta miqdori uchinchi shaxs-investorlarning mukofotlash haqi miqdorida kamaytiriladi va yetkazib beruvchilar balansining xarajatlar qismida hisobga olinadi.[\[8\]](#)

Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda to'langan summa kontrakt bo'yicha amalga oshirilganda, xizmatlar eksportini amalga oshiruvchi va import qiluvchining mamlakatida ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlardan (foydadan) qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda soliqlar to'lagan eksport qiluvchilar o'zining tijorat bankiga ushbu soliqlar chet elda to'langanligi to'g'risidagi tasdiqnomani taqdim etsagina debitorlik qarz sifatida hisobga olinmaydi.

Tashqi savdo kontraktlari bo'yicha aktivlar repatriatsiya qilinishi yoki belgilangan muddatlar tugagandan keyin ko'pi bilan 45 kun (kichik tadbirkorlik subyektlari uchun – 90 kun) mobaynida ta'minlamagan xo'jalik yurituvchi subyektlarga jarima qo'llaniladi. Bunda aktivlarni repatriatsiya qilish norezidentga to'lov yoki eksport amalga oshirilgan sanadan e'tiboran (kunga kechikish darajasiga ko'ra) repatriatsiya qilinmagan aktivlar summasiga nisbatan hisoblanadi. (2-rasm)



2-rasm. Tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlik uchun jarima qo'llash tartibi.[\[8\]](#)

Jadval yoki diagramma

Quyidagi hollarda xo'jalik yurituvchi subyektlarga tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlik uchun jarima qo'llanilmaydi.



jarima qo'llash to'g'risidagi ish bo'yicha sud tomonidan hal qiluv qarori chiqarilguniga qadar «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq repatriatsiya qilingan aktivlar summasiga nisbatan;



asbob-uskunalarini va (yoki) butlovchi qismlarni yetkazib berish muddatlari ularning texnik tavsiflariga hamda o'ziga xos xususiyatiga qarab 180 kundan ortiq etib belgilangan importga oid kontraktlar bo'yicha yetkazib berish muddati davrida;



transportda tashish yoki saqlash chog'ida taraflarga bog'liq bo'lмаган sabablarga ko'ra yaroqsiz holatga kelgan tovarlar davlat organlari tomonidan yo'q qilinganligini yoxud musodara qilinganligini tasdiqlovchi vakolati organ tomonidan berilgan hujjat taqdim etilgan taqdirda;



ayni bir qarzdorlik predmeti va tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) amaldagi eksport va import hajmi bo'yicha takroriy jarimalar;



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq amalgalashiriladigan loyihamalar doirasida tuzilgan importga oid kontraktlarda yoki mahsulot taqsimoti to'g'risidagi bitimlarni amalga oshirish doirasida boshqaruvchi qo'mita tomonidan tasdiqlangan importga oid kontraktlarda belgilangan muddatlar buzilmagan bo'lsa;



eksport operatsiyalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlikning umumiy summasi muddati o'tgan debitor qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan oldingi 36 oy davomida ta'minlangan valyuta tushumining 10 foizidan ortiq bo'lмаган holatlarda

Xulosa va takliflar

Yuqorida o'rganishlarimiz va tahlillarimiz asosida Tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha qarzdorliklar bilan bog'liq yechilmagan masalalar, Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimidan qarzdorlikni chiqarishni tashkillashtirish hamda kreditor qarzdorlikni hisobdan chiqarish bo'yicha ayrim muammolar mavjudligini aniqlandi.

Hususan, Fuqarolik kodeksining 150-moddasiga muvofiq umummiy da'vo muddati – uch yil etib belgilanganligi hamda kodeksning 157-moddasiga asosan da'vo muddatining o'tishi belgilangan tartibda da'vo qo'zg'atilishi bilan, shuningdek, majbur shaxs qarzni tan olganligini ko'rsatuvchi harakatlarni qilishi bilan uziladi deb ta'kidlangan. Bugungi kunda korxonalar o'z qarzdorliklari muddatini mazkur moddalarga asosida uzaytirib kelmoqda.

Natijada, bunday holatlarda har bir korxonaning har bir xorijiy hamkor bo'yicha xorija so'rovnomaga yozilishi talab etilishi holati kuchayadi va o'z navbatida qarzdorliklarni qisqartirish jarayoni murakkablashishi va muddatga salbiy ta'sir etadi. Bugungi kunda mazkur holat mavud bo'lgan bunday korxonalar tomonidan tuzilgan shartnomalarning soni 20592 tani tashkil etmoqda. Bu esa, o'z navbatida qarzdorligi mavjud korxonalarini qamrab olinish darajasi pastligini ko'rsatmoqda.

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha valyuta nazoratini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni loyihasida ushbu muammoni hal qilish yuzasidan takliflar kiritildi.

Ushbu takliflarimiz asosida, mazkur farmon qabul qilingan taqdirda soliq solish bazasini kengaytirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 9-noyabr kuni Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining (ИХТ) 16-sammitida so'zlagan nutqi. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/11/09/eco/>
2. Антикризисное управление [Текст]: Учебник для вузов / Под. ред. Ларионова И.К. – М.: Дашков и К, 2017. – 292 с.
3. Все положения по бухгалтерскому учету по состоянию на 2017 год [Текст]: Законы и кодексы – М.: Эксмо, 2017. – 224с.
4. Бланк И.А. Управление прибылью [Текст]: – Киев: Ника-Центр, 2011. – 457 с.
5. Береза С.Л. Классификация дебиторской задолженности: новые подходы [Текст] // Вестник ЖИТ, 2001, № 14, С.156.
6. Финансовый менеджмент: для студентов направления «Экономика» всех форм обучения [Текст]: Учебное пособие / Под ред. Салтыкова М.А., Шибанова В.Е. – Владивосток: ДВФУ, 2015. – 132 с.
7. Ивашкевич В.Б., Семенова И.М. Учет и анализ дебиторской и кредиторской задолженности [Текст]: – М.: Бухгалтерский учет, 2003. – 192 с.
8. Tashqi savdo operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 maydagi 283-son qarori.
9. Tashmukhamedova Y.A. Issues of Ensuring Economic Security on the Basis of Improving Tax Administration. Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249 –0892 Vol14 Issue–01, June -2024

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

